



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH

Qahramon TO'XSANOV

Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

“MASNAVIYI MA’NAVIY”NING O’ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI

Maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarining o’zbek adabiyotiga ta’siri. Zikri o’tgan manzuma ta’sirida o’zbek adabiyotga vujudga kelgan asarlar qiyosiy o’rganilgan. Shuningdek, manzumani o’zbekcha nazmiy va nasriy tarjimalari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Rumiy, “Masnaviy ma’naviy”, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, “Mabdai nur”, adabiy aloqa, tarjimashunoslik.

В статье рассматривается влияние произведения Мавлоно Джалалиддина Руми “Маснавийи духовный” на узбекскую литературу. Произведения, возникшие в узбекской литературе под влиянием упомянутой манзумы, были сравнительно изучены. Также упоминалось об узбекском назмии и прозаических переводах манзумы.

Ключевые слова: Джалалиддин Руми, “Маснави духовный”, Алишер Навои, Боборахим Машраб, “Мабдай нур”, литературная коммуникация, переводоведение.

The article examines the influence of the work of Mavlono Jaloliddin Rumi “Masnavi yi spiritual” on Uzbek literature. The works that emerged in Uzbek literature under the influence of the aforementioned manzuma have been comparatively studied. Uzbek nazmiy and prose translations of the manzuma were also mentioned.

Keywords: Jalaliddin Rumi, “Spiritual Masnavi”, Alisher Navoi, Boborahim Mashrab, “Mabdai nur”, literary communication, translation studies.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyot durdonalari keng hududda vujudga kelgan, rivojlangan, eng asosiysi, ular arabiyl, forsiy va turkiy tillarda yaratilgan bo‘lib, butun dunyoda shuhrat qozongan. Ko‘p ijodkorlar mazkur tillarni mukammal bilgan va bir-birini o‘zaro asarlarini tarjimasiz o‘qigan. Ular ruhiy oziqlashib va ilhomlanib o‘zlarini ma’naviy meroslarini shu tillarda yaratgan. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, professor Abduqahhor Ibrohimov shunday dedi: “Kezi kelganda bir narsani aytishni lozim topaman. Sho‘ro siyosati millatlarni bir-biridan ajratib yubordi. Qadimda ana u arab, bu fors, anavinisi turk degan gaplar yo‘q edi. Millatidan qat’i nazar, aksariyat xalqlar Turk davlatchiligi bayrog‘i ostida bo‘lgan. Sharq xalqlarining aksariyati bir-biri bilan quda-anda tutingan, qarindoshlik rishtalari mustahkam bo‘lgan”. Iqtibosdan ma’lum bo‘ladiki, Sharq mumtoz adabiyoti donishmandlari va ijodkorlari arab, fors-tojik va turk-o‘zbek tillarini mukammal bilgan. Shuningdek, ular yunon, hind, yapon, xitoy va coreys tillaridan ham xabardor bo‘lgan. Chunki ba’zan ularning adabiy merosida shu til vakillarining urf-odatlariga yaqin rivoyat, hikoyat va qissalar uchraydi.

Asosiy qism. O‘zbek mumtoz adabiyoti nihoyatda qadimiy va boydir. Bu adabiyotda yaratilgan barcha turdag'i asarlar butun insoniyat

aqlini rom qilib, lol qoldirgani birovga sir emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Sharq mumtoz adabiyoti uchta buyuk adabiyotdan iborat. Bular arab, fors-tojik va turk-o‘zbek adabiyoti hisoblanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Hazrat Alisher Navoiy uch tilni mukammal bilganligi va shu tillarda asarlar yaratganligi soha mutaxassislariga ayon. Hatto ba’zan bir g‘azalning o‘zidayoq ikki tillilik bo‘lgan. Birinchi misrasi tojikcha, ikkinchi misrasi o‘zbekcha bo‘lgan bu usul adabiyotda “shiru shakar” deb ataladi.

Navoiyning forsiydagi ijodi bu adabiyotning ko‘plab namunalariga javob tariqasida yozilganligi bilan ham qimmatlidir. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazkirasiha turkiyda bitilgan javobiya sifatida dunyoga kelgan “Nasoyim ul-muhabbat” har ikki xalq ma’naviy olamiga daxldor ko‘plab ma’lumotlarga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tazkirani tartib berish jarayonida forsiy adabiyotning buyuk namoyandas, bashariyat shoiri, “Masnaviyi ma’naviy”dek o‘lmas asarning muallifi Rumiy hayoti, adabiy merosiga oid ma’lumotlar o‘zbek adibining diqqatini o‘ziga jalb etgani shubhasiz. Shu bois “Mavlono Jaloluddin Muhammad Balxiy Rumiy q.s.” ta’rifi “Nasoyim ul-muhabbat”ning alohida sahifalarini tashkil etadi.

106 Mazkur sahifalardan, avvalo, Mavlononing tavallud yili va joyi, bolalik chog‘ida u kishi bilan sodir bo‘lgan mo‘jizalar haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. So‘ngra muallif Mavlononing otasi bilan Makkaga borayotib, Nishopurda Shayx Fariduddin Attor bilan uchrashganligi, u kishi yosh ma’rifat shaydosiga o‘z “Asrornoma”sidan nusxa tuhfa qilganligi, bolakayning kelajagi haqida xabar bergenligi haqidagi badiiy lavhalar katta qimmatga ega.

Navoiy shoirning vafot yilini qayd qilar ekan, shunday yozadi: “Va alar as’hob vasiyatida mundoq buyurubdurlarki, “Sizlarga vasiyatim shuki, xoh pinhon, xoh oshkor oz yeb, oz uxlab, oz gapirib, gunohlardan saqlanib, doimo ro‘za tutib, tunlari bedor bo‘lib, hamisha katta orzu-istiklardan kechib, xalq jafosiga sabr qilib, omi va nodon davrasini tark etib, ulug‘lar va solihlar bilan suhbat qurib, Allohga taqvo qiling! Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydasi tegadiganidir! So‘zning yaxshisi – ozi va maqsadga yetkazadiganidir! Va hamd yolg‘iz Allohgadir!”

Suyima G‘anieva mazkur asar haqida va Rumiy bilan bog‘liq ma’lumotlarni berar ekan, shunday yozadi: “Xoja Muhammad Porso, Fariduddin Attor, Xoja Avhaduddin Hamid Kirom, Amir Qavomuddin Sinjobi va boshqa mashoyixlar haqidagi fikrlarda Jaloluddin Rumiy bilan bog‘liq ma’lumotlar ehtiyyotkorlik bilan turkiyga o‘girilgan”.

Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi zamondosh ijodkorlar haqida ma’lumot beradi. Binobarin, unda Rumiy haqidagi alohida qaydlarga o‘rin ajratilmagan. Ammo muallif bu va boshqa bir qator asarlarida turli sabablarga ko‘ra, Rumiy siymosiga murojaat etgan. Jumladan, “Majolis un-nafois”da muallif u yoki bu shoir ijodi xususida so‘z yuritar ekan, Rumiyni yodga oladi. Qosim Anvorning Rumiy “Masnaviy”si vaznida masnaviy yozganligi, Husayn Xorazmiyning Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”siga sharh bitganligi xususidagi muxtaras, ammo muhim xabarlarni shu sirada qayd etish mumkin.

Alisher Navoiy ijodiga mansub “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining ikkinchi maqoloti ulug‘ shoirning ustoz Abdurahmon Jomiy bilan yozishmalari xususida ma’lumot berishi bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolotda Rumiy haqidagi samimiy satrlar ham borligi diqqatga sazovordir. Inchunin, hazrat Navoiy o‘zi va ustoz Jomiy tomonidan “Masnaviyi ma’naviy”ning ilk baytiga o‘ziga xos tarzda tazmin bitilganligi xususida shunday yozadi: “Podshoh Marv qishlog‘ida erkanda Ustod Hasan Noyining favi (vafoti)ning xabari Iroqdan keldi, faqir (shoir o‘zini nazarda tutmoqda – Q.T.) Hazrat Maylaviy (Rumiy – Q.T.) masnaviysining avvalg‘i bayti munosabati

jihatidan tazmin qilib erdim. Bu nav’kim, tazmin: Sharhi haçri shohi ustodon Hasan, “Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.

Band-bandи ý çudo gasht zi ham,
“Az çudoaho shikoyat mekunad”.

Mazmuni: Ustodlar shohi Hasandan judolik sharhini “Naydan eshitgil, qanday hikoyat qiladi”. Uning bo‘g‘in-bo‘g‘ini bir-biridan ajralib, “Judoliklardan shikoyat qiladi”.

Bitib, shahrda hazrati Maxdum (Abdurahmon Jomiy – Q.T.) xizmatharig‘a yiborilib erdi. Alar kelur kishidin ham bu baytni tazmin qilib, bu ruq’ani yiborib erdilarkim, tazmin:

Shud nai xoma dilamro tarçumon,
“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.

Bo zaboni tezu chashmi ashkrez
“Az çudoaho shikoyat mekunad”.

Mazmuni: Qalam nayı dilimning tarjimoni bo‘ldi: “Naydan eshitgil, qanday hikoyat qiladi”. O‘tkir til va yosh to‘kuvchi ko‘zlar bilan “Judoliklardan shikoyat qiladi”.

Mazkur yozishmalar Navoiyning ustod Rumiy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni o‘rganish va turli munosabat bilan talqin qilishdan tashqari, shoir ma’naviy merosidan ilhomlanib, asarlar ham yaratganligini yaqqol namoyon etadi.

Bu holatni shoirning axloqiy-irfoniy asarlari misolida ham yorqin kuzatish mumkin. Binobarin, Qur’oni karim va Hadisi sharif asrlar osha sharq mumtoz adabiyotining bezavol manbalari o‘larоq, uning mavzuviy yo‘nalishi, takomil va taraqqiyotiga omil bo‘lib xizmat qildi. Mumtoz adiblarimiz bu ikki islomiy sarchashmadan ilhomlanib, ular bag‘rida jo bo‘lgan g‘oyalarni nasr va nazmga solishda alohida g‘ayrat ko‘rsatdilar. Bu siradagi asarlar Rumiy va Navoiy adabiy merosida ham alohida o‘rin tutishi ilm ahliga yaxshi ma’lum. Shuningdek, Rumiyning o‘zbek adabiyotiga ta’siri ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘tmishda o‘zbek tilida ham “Masnaviyi ma’naviy”ni sharhlashga urinishlar bo‘lgan. Manzumaga sharh yozish XV asrdan boshlangan. Ilk sharhni Kamoliddin Husayn Xorazmiy yozgan. Lekin u “Javohir ul-asror va zavohir ul-anvor”da manzumaning faqat uch daftарini sharhlagan. Yana Mashrabning “Mabdai nur” XVIII asrda Xorazmda yashab faoliyat ko‘rsatgan Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Miftoh ul-asror” asarlarini bunga misol keltirish mumkin.

Abdurauf Fitrat adabiyotshunos va mashrabshunos sifatida Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asari xususida shunday yozadi: “Endi Mashrabg‘a nisbat berilgan “Mabdai nur” kitobiga ko‘chaylik. 1912 yilda Buxoroda toshbosmada bosilgan bu kitob mashhur Rumiyining

masnaviysig'a o'zbek tilida sharh kabi yozilg'anadir. Rumiyning masnaviysidan ba'zi baytlar oling'an. Har baytining forsi(y)cha matnidan keyin ayni vaznda o'zbekcha manzum sharh boshlanadir. Sharhda Rumiyning so'fiyona ramzları izoh etiladir".

Biz Abdurauf Fitrat fikrlariga tayangan holda olib borgan tadqiqotimizdan ma'lum bo'ldiki, Boborahim Mashrab Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asaridan "Mabdai nur"da 40 baytni avval forscha keltirib, so'ng o'zbekchaga tarjima qilgan, ba'zan baytlarni tarjimasiz izoh bilan bergen. Hikoyatlarning mazmuniga qarab qiyoslaganimizda, har ikkala asarning yigirmadan ortiqroq rivoyatlari mazmun jihatidan bir-biriga mos keladi. XVII asrning birinchi yarmi (1640), XVIII asr ibtidosida yashab faoliyat ko'rsatgan Boborahim Mashrab o'zidan g'oyat salmoqli ma'naviy meros qoldirgan iste'dod sohibidir. Darvesh shoirdan faqat kichik janrdagi asarlar emas, balki katta hajmli asarlar – "Mabdai nur" va "Kimyo" ham meros qolganligi adabiyotshunoslarimiz tomonidan ta'kidlangan va ilmiy jihatdan asoslangan. "Mabdai nur" iborasi (nurning boshlanish, chiqish joyi) tasavvuf tushunchasida Alloh nurining jilo berishi, dunyonи, insonlar qalbini yoritish kabi ma'nolarga ega. Xudoning ismlaridan biri ham "An-Nur"–borliqni nurlantiruvchi, istaganining qalbiga nur kirituvchidir.

Mashrabshunoslikda e'tirof etiladigan xulosalarga ko'ra, "Mabdai nur" buyuk shayx va shoir Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asariga javob tarzida dunyoga kelgan. Mashrab masnaviysida kuzatiladigan qator zohiriylalomatlar mazkur asarlar o'rtaidagi mushtarakliklardan dalolat beradi. Asar tasavvufona ruhda yozilgan axloqiy-tarbiyaviy, nazmiy pandnomalar bo'lib, uch daftardan iboratdir. Asarda shoir Allohga sig'inish va uni zikr qilish, har qanday holatda ham Haqni yoddan chiqarmaslikka da'vat etadi. Poklik, halollik, rostgo'ylik, birov haqiga xiyonat qilmaslik, shafqatli, xayr-saxovatli bo'lish kabi oljanob insoniy xislatlarni targ'ib qiladi. Shunday go'zal fazilat asosida o'zlikni anglashga chaqiradi. Buyuk ijodkor ham mazkur asarda ma'rifat va haqiqat kabi g'oyalarni birinchi o'ringa qo'ygan. Chunki shoirning o'zi butun umri davomida shunga amal qilgan valiysifat inson edi.

"Mabdai nur"dagi birinchi daftar 3070 baytdan tashkil topgan bo'lib, unda Rumiy "Masnaviyi ma'naviy"sidan olingen 19 bayt ham joy olgan. Asar 22 muqaddima (872 bayt), 52 hikoyat (1881 bayt), 16 g'azal (272 bayt), 3 mustahzod (ikkiasi o'zbekcha, bittasi arabcha, 23 bayt)ni o'z ichiga olgan.

Muallif muqaddimada Rumiydan bayt keltirib,

so'ng o'z maqsadiga o'tadi. Manzumaning uchala daftarida hikoyatlarga nom berilmagan, balki ular avvalida "Hikoya" yoxud "Hikoyat" deb qo'yilgan, xolos. Dastlabki kuzatishlar natijasiga ko'ra, hikoyat ichida hikoyat keltirish usulidan foydalaniqligini ma'lum bo'ldi. Ijodkor badiiy lavhalarning ta'sir kuchini oshirish uchun xalqona ibora va tamsillardan, buyuk avliyo-anbiyolar, tarixiy shaxslar hayotidan lavhalar keltiradi. Hikoyatlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, ularni shartli quyidagicha nomlaydi. Jumladan "Ho'kiz va o'tloqzor", "Xoja Zunnun va tegirmon", "G'assol", "Sut sotuvchi ayol", "Bola va keksa", "Nuh payg'ambar qissasi", "Erkak va yomon hid", "Nobakor va minora", "Shohni ma'rifat yo'liga kiritgan ayol" yoki "Shahzoda va ayol ishqisi", "Qallob kishi va ishq", "Shayx Shodmon va shoh", "Shayx Suhayl", "Dunyo va uqbo tavsifi", "Xoja Yunus Nishopuriy va Haj safari", "Xoja Akmal", "Ot va egasi", "Xudparast", "Savdogar va o'g'ri", "Chivin va ari", "Takabbur yigit va tabib", "Xoja Sobir", "Muallif va Majnun qabri", "Muso, ajdarho va norasida bola", "Muso va aso", "Bilimsiz ota va o'g'il", "Cho'pon va Muso", "Hazrati Xizr va Muso", "Kar va ko'r", "It va so'fiy", "Xoja Tolib Balxiy", "Sichqon va tuya", "Ikki birodar" "Muallif, pir va Alloh", "Yigit, ayol va uning singlisi", "Munofiq kimsa", kabi hikoyatlar, asar badiiy qurilmasidan o'rin olgan.

Hikoyatlarda turli mavzularga murojaat qilingan bo'lib, ularning asl mohiyati nomlaridan ayonlashayotir. "G'assol" hikoyatida umr bo'yi biri ikki bo'Imagan, topganini farzandu ayoliga bergen, ularni moddiy jihatdan ta'minlashga uringan va natijada ayoli, o'g'li va ukasidan vafo ko'rmagan g'assol timsolida achchiq hayotiy haqiqat ochib berilgan. G'assol avval xotini, so'ng o'g'li va nihoyat, ukasi oldiga borib, ajali yaqinlashayotganini aytadi. Lekin ularning hammasidan bir xil javob oladi: "Menga nima, o'lsang – o'laver". Albatta, bu adolatsizlikdir. Ijodkor ixcham bir hikoyatda jamiyatning illatini ochib tashlaydi va odamlarni adlu insofga chaqiradi. Yaxshilik qo'lidan kelmasa, hech bo'lmasa bir-biriga yomonlik qilmasin yoki qiyinchilik vaqtida yordamini darig' tutmasin, deydi adib.

Yana bir achchiq hayotiy haqiqat "Sut sotuvchi ayol" hikoyatida ko'zga tashlanadi. Yomon nafsi qondirishni ko'zlagan ayol buzilgan sut va qaymojni qorong'u tushganda sotib pul qilar edi. Bundan foydalaniib, o'ziga o'xshagan badniyat kimsalar ayolni xilvatga chorlaydilar va sutning ta'mini ko'rib, achiganligini bilganlaridan so'ng, uning qo'l-oyog'ini bog'lab, nomusiga tegadilar. Xulosa shundan iboratki, har qanday hirsga berilgan kimsa ana shunday holatga tushishi

108 mumkin. Chunki xalqni aldash, uning nafsoniyatiga tegish Allohga ham, bandasiga ham ma'qul kelmaydigan gunohi azimdir.

"Mabdai nur"ning ikkinchi daftari jami 3465 baytni tashkil etadi. Bu daftar ham muqaddima, hikoyat va g'azallardan tarkib topgan. Lekin hajm jihatdan birinchi daftarga nisbatan kattaroqdir. Umuman olganda, 16 muqaddima (219 bayt), 69 hikoyatt (2954 bayt), 34 g'azal (292 bayt)ni o'z ichiga olgan.

Ikkinci daftardagi hikoyatlar birinchi daftardagilarga mavzu jihatdan o'xshash va yaqindir. Birinchi daftardagi "Sut sotuvchi ayol" va ikkinchi daftardagi "Sut sotuvchi, ayoli va yosh xotini" hikoyatlarida mushtaraklik mavjud. Birinchi hikoyatda nafs balosiga giriftor bo'lgan ayol fojiasi ibrat qilib ko'rsatilsa, ikkinchi hikoyatda sigir sutiga eshak sutini qo'shib sotgan erkakning sharmandali basharasi fosh etiladi. Ijodkor bunday voqealarni tasvirlar ekan, dunyo obodligi, xalq farovonligi, iymonli odamlar borligidan Allohga shukronalar qiladi. Nokaslar hech qachon qabih maqsadlariga yeta olmasliklarini yana bir bor eslatadi.

"Mabdai nur"ning uchinchi daftari 1438 baytdan tashkil topgan. 3 muqaddima (37 bayt), 29 hikoyat (1273 bayt), 9 g'azal (88 bayt)dan iborat.

Uchinchi daftardagi farq shundaki, unda muqaddimadan so'ng hikoyat emas, balki "Dar bayoni sunnatho" ("Sunnatlar bayonida") keltirilib, Allohning farzi va Payg'ambarimizning sunnati haqida so'z yuritilgan.

Uchinchi daftardagi hikoyatlar mavzusi jihatidan rang – barangdir. Bilimli, ma'rifatli otalar o'tmishda va hozirgi kunda ham oilani boshqarib kelgan. Farzandlar – ota-onaning kelajagi, ular qancha oqil, dono va bilimdon bo'lsa, mehribon voldilar shuncha yaxshi umr kechiradi. Lekin ota yoki ona savodsiz bo'lsa, farzandning holi qanday kechadi? Muallif hikoyatda ma'rifatsiz otalarni ayovsiz tanqid qilgan.

"Mabdai nur" mundarijasi g'oyat keng asar. Asarda davlat arbobidan tortib, oddiy cho'ponu sotuvchigacha bo'lgan ijtimoiy qatlamlar hayoti tasvirlangan. Ular hayoti, xatti-harakati, nuqson va fazilatlaridan ibrat olib, odob-axloqni o'rganish targ'ib qilingan. "Shohnoma"da Rustam, "Saddi Iskandariy"da Iskandar, "Farhod va Shirin"da Farhod sevimli obrazlar bo'lsa, Mashrab asarida Payg'ambarlar, avliyolar hayoti namuna qilib ko'rsatilgan. Qalbi pok, vujudi pok, tili va dili bir, ilmiga amal qiladigan, har qanday qiyinchilikka chidaydigan, bir nazar bilan minglab odamlarni to'g'ri yo'nga soladigan, insonlar dardini o'z dardiday biladigan, haq – haqiqat uchun kurashadigan, birovning nafsoniyatiga tegmaydigan, Alloh yodi ila yashaydigan buyuk

shaxslar hayoti shoir diqqat markazidadir. Bu esa asarning barcha zamon va makonlar uchun ahamiyatlari ekanligidan dalolatdir.

Mashrabning g'azallarini diqqat bilan o'rganganimizda, Rumiying ta'siri borligi ma'lum bo'ladi. Mashrab yigirmadan ziyod g'azalida Rumiying nomini alohida hurmat bilan tilga olgan. Jumladan, quyidagi bayt fikrimizni to'liq tasdiqlaydi:

Mavlaviyga Shams Tabriziy burun
aytgan ekan:

Vaqti oxir Mashrabi sohib duo
paydo bo'lur.

Mashrab nafaqat Rumiy ismini keltirish bilan kifoyalangan, balki uning ayrim g'azallaridan ta'sirlanib javobiya ham yozgan:

Maqsudi Haqning asliyam, ore,
manam, manam, manam,

Sohibi nuri fazliyam, ore, manam, manam,
manam.

Uchinchidan, "Mabdai nur" "Masnaviyi ma'naviy"ning birinchi bayti bilan boshlanadi:

Bishnav az nay chun hikoyat mekunad,
V–az judoiho shikoyat mekunad. (1, 16)

Mashrab "Masnaviyi ma'naviy"dagি birinchi baytini quyidagicha tarjima qilgan:

Anglag'il, nay ne hikoyatlar qilur,
Kim judolig'din shikoyatlar qilur.

"Masnaviyi ma'naviy"da kichkina bir rivoyat bor. Unda aytlishicha, "Bir holvafurush bolakay, holva sotib yurgan chog'ida, bir shayx uning holvasini olib, bepul taqsimlab chiqadi, og'ir vaziyatga tushib qolgan bolakay yig'lashga tushadi, shayx va atrofdagilarning unga rahmlari kelib, holvaning pulini beradilar", Rumiy bir bayt orqali ko'pchilikka to'g'ri ta'lim berib o'tadi. Ya'ni bolaning yig'isi shayx va holvani bepul olganlarni hushyor qilib qo'yadi. Yig'i timsoli orqali har bir narsaning qimmati borligi ko'rsatib berilgan. Boborahim Mashrab shu rivoyatni quyidagi baytlarda asliyat va tarjimani yonma – yon keltirib, o'z g'oyasini bayon etadi:

To nagiryad ko'daki halvofuro'sh,
Bahri rahmat darsnameoyad ba jo'sh.

Yig'la misli go'dagi halvofurush,
Shoyad kelgay bahri baxshoyish bajush.

Bunday misollar har ikkala asarda anchagina. Misol, "Mabdai nur" asarida "Masnaviyi ma'naviy"dan baytlar (36-, 39-, 42-, 49-, 52-, 59-, 62-, 66-, 69-, 72-, 75-, 79-, 82-, 85-, 89-, 106-, 109-, 111-, 112-, 121-, 128-, 135-, 140-, 146-, 152-, 158-, 164-, 170-, 175-, 176-, 182-, 188-, 194-, 199-, 200-, 205-, 206-, 211-, 212-, 216-, 218-, 226-, 227-, 234-, 236-, 243-, 253-, 256-betlarda) keltirilgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy "Miftoh ul-asror" asarida avvalo, kitob tarkibi olti fasldan

iboratligini qayd qiladi, tadqiqotning boshlanishida, ilm turlari, soliklar, taqlid va kamol ahli sifati xususida fikr yuritiladi. Keyin “Masnaviyi ma’naviy” asarining uchta daftardan hikoyat, rivoyatlarni tanlab rumiyona talqinlaridan foydalangan holda maqsad va muddaosini izohlashgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asardagi 511 ta rivoyatga murojaat qilgan va ularni sharhlagan.

Masnaviyxonlik o‘zbek xalqi orasida ham mashhur bo‘lib, yurtimizda keng tarqalgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida “Masnaviyi ma’naviy”ning “yuzga yaqin qo‘lyozma va bosma nusxalarining mavjudligi” fikrimizga asosdir.

XX asrning 80 – yillarida tarjimashunos G‘aybulla Salomov tadqiqotlarda Jaloliddin Rumiy ijodidan foydalangan: “XII asr Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyandasini Rumiyda (1207– 1273) shunday masal bor: turli shaharlardan kelib qolgan to‘rt kishi uchrashib, ittifoqo bir dirham pulni topib oladilar. Ular fors, turk, rum fuqarosi (grek) va arab edilar. Haligi bir dirhamga nima xarid qilish masalasida to‘rtovlon tortishib qoladilar.

Forsi gufto: “az in chun vorahem,
Ham biyo, k – inro ba angure dihem”.

On arab gufto: “Maozalloh lo,
Man inab xoham, na angur, ey dag‘o”.

On yake k – az turk bud, guft: “Ey
ko‘zum,
Man namexoham inab, xoham uzum”.

On ki rum bud, guft: “In qilro
Tark kun, xoham man istofilro”

Mazmuni shundayki, fors “angur” olmoqchi, arab – “inab”, turk – “uzum”, grek esa “istofil” xarid qilishni istaydi. Bu g‘alva sababidan xabardor bo‘lgan yuz tilni biluvchi bir poliglot (kishi) tomonlarni murosaga keltirib, o‘sha bir dirhamga uzum olib beradi. Bas, ma’lum bo‘ladiki, fors, arab, turk, grek to‘rtalasi ham, har biri o‘zicha ayni bir narsani olmoqchi bo‘lishibdi-yu, lekin ularning tillarida o‘sha narsaning nomi har xil bo‘lganidan, bir-birovning tiliga tushunmay, o‘zaro janjallashayotgan ekanlar!”

Muallif rivoyatdan oлган taassurotini quyidagicha xulosa qiladi: “Insoniyat yagona tushuncha, lekin u turli-tuman urug‘lar, qabilalar, qavmlar, xalqlar, millatlarga bo‘lingan, ular esa bir necha minglab tillarda so‘zlashadilar. Najmaddin Komilov ham o‘z kitobini shu rivoyat bilan boshlagan.

O‘zbek xalqini Rumiy hayoti va ijodi bilan

tanishtirishda Jamol Kamolning xizmatlari katta. U o‘zining bu muhim ma’naviy missiyasini Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” nomli tarixiy-biografik romanini tarjima qilishdan boshlagan edi.

Mustaqillikkacha Rumiy ijodiga munosabat bir tomonlama edi. Adib asarlari yuzaki o‘rganildi. Najmaddin Komilov ayrim tadqiqotlarida fikrining tasdig‘i uchun “Masnaviyi ma’naviy”dan “To‘rt yo‘lovchi” rivoyatini keltiradi. Shuningdek, shoир g‘azallaridan “Onho ki talabgori Xudoed, Xudoed” misrasi bilan boshlanadigan g‘azalni keltirib, zamon zayli bilan Rumiy xudoparast, real hayotni bir tomonlama tushungan degan fikrlarni bildirilgan. Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlarda shoир ijodining tasavvufiy va axloqiy, pandu hikmatga boyligini, inson qadri adib ijodida ulug‘langanligini o‘rganishga e’tirof ortdi.

Shu davrda fors-tojik adabiyoti bilimdoni, zabardast mutarjim Shoislom Shomuhamedov buyuk so‘z san’atkori – Rumiyning bir necha g‘azal, ruboiy va hikoyatlarini tilimizga o‘girdi.

1991 yili Jamol Kamol fors-tojik tilida qalam tebratgan 9 nafar mumtoz shoир ijodidan 333 ta ruboyni mumtoz ruboynavislik an’anasi va ruboiy tarjimachiligi tajribalariga tayangan holda asliga muvofiq tarjima qilib nashr ettirdi. Ular orasida umumiyligiga mansub 53 ta ruboiy ham mayjud. 1994 yili esa uning tarjimasida mutasavvif shoirning “Uchmoqqa qanot yo‘q, vale uchgayman” nomli she’rlar to‘plami bosilib chiqdi. Uzoq tayyorgarlikdan so‘ng shoир-tarjimon “Masnaviyi ma’naviy” tarjimasiga kirishdi.

Mutarjim Asqar Mahkam turkiyalik rumiyshunos olim Obiddin Poshsho va eronlik mavlaviyshunos Karim Zamoniylarning sharhlariidan foydalangan holda, “Masnaviyi ma’naviy” birinchi kitobining bir qismini 1999 yilda o‘zbek tiliga o‘girdi.

Istiqlol yillarida Rumiy hayoti va ijodini o‘rganish, merosini tarjima qilib, nashr etishda alohida davr boshlandi, deyish mumkin. Orif Usmon, Hamidjon Homidiy, Najmaddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Hamidulla Boltaboev, Tohir Qahhor, R. Jumaev, Ergash Ochilov, Xusrav Hamidov kabi olimlar bu borada ilmiy tadqiqotlarini e’lon qildilar.

Ibrohim Haqqul shunday degan edi: Rumiyning quyidagi iborasi menga qattiq ta’sir qildi va o‘ziga jalb etdi – “Meni ona tug‘magan, ishq tuqqan. Bu validaga ming-ming rahmatu ofarin bo‘lsin”. Olim mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab o‘z tadqiqotlarida Rumiy bosib o‘tgan ibratli hayot yo‘li, ma’naviy merosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi.

Ibrohim Haqqul “Tasavvuf va she’riyat” kitobida boshqa mutafakkir so‘fiylar qatori Rumiy nomini ham hurmat bilan tilga oladi. Rumiy va

110 Sirojiddin Qazviniy munozaralari borasida fikr yuritib, mazkur masalaga o‘z nuqtai nazarini bayon etadi. Olimning fikr- mulohazalar keng qamrovli bo‘lib, kitobxon va tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Rumiyning asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilish, uning hikmatlari va ruboilyarini o‘zbek kitobxoniga yetkazish sohasida adabiyotshunos va mutarjim Ergash Ochilovning ham xizmatlari tahsinga loyiqidir.

Bu sohada adabiyotshunoslар Abdumurod Tilavov, Ja’far Muhammad, Saodat Meylieva, Sabohat Bozorova ham ancha jonbozlik ko‘rsatdilar. Rumiyning asarlarini va ijodiyga bag‘ishlangan bir qator kitoblar turkiy tildan o‘zbekchaga o‘girildi. Sayfiddin Sayfulloh va Jahon O‘kuyuji. Buyuk mutafakkirning pedagogik qarashlari yosh olima G. Izbullaeva tomonidan o‘rganildi.

“Masnaviyi ma’naviy” asarining ayrim baytlari va hikoyatlari Xayrulla Qosim va Abdulloh Rahimboev tomonidan nasriy bayonda chop etildi.

Jaloliddin Rumiyning shaxsiyati va ijodiga munosabat bildirish ilk bor Navoiydan boshlanadi, desak bo‘ladi. Bu fikrimizning dalili sifatida “Nasoyim ul- muhabbat” asarida Rumiy hayoti va ijodiga doir fikrlarni keltirish mumkin. Hazrat Navoiydan keyin o‘zbek tilida ham “Masnaviyi ma’naviy”ni sharhlashga urinishlar bo‘lgan. Haydar Xorazmiyning “Javohir ul-asror” asarini bunga misol qilsa bo‘ladi.

Adabiyotshunos I. Haqqulov ham o‘zbek kitobxonini Rumiy ijodi bilan yaqinda tanishtirish uchun ancha tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqillik davriga kelib Rumiy adabiy merosini chuqur o‘rganish, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish, sharhu izoh berish an’ana tusiga kirdi.

Adabiyotlar

1. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавий маънавий. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Учинчи нашри. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2014. – Б. 411.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдли. Ўн еттинчи жилд. Насойим ул-муҳаббат. – Т.: Фан, 2001. – Б. 325-329.
3. Насойим ул-муҳаббат. – Б. 329.
4. Ганиева С. Жалолуддин Румий Навоий нигоҳида. Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Мавлоно Жалолиддин Румийнинг 800 йиллигига бағишиланган илмий анжуман материаллари. – Т.: 2007. – Б. 32-35.
5. Насойим ул-муҳаббат, – Б. 11.
6. Насойим ул-муҳаббат, – Б. 13.
7. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдли. Ўн бешинчи жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин. – Т.: Фан, 1999. – Б. 31-32.
8. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2 жилд. Илмий асарлар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 102.
9. Тўхсанов Қ. Мабдаи нур асарининг мундарижаси ҳақида. Филология ва усулиёт масалалари. Илмий-усулий мақолалар туплами. 1-китоб. – Т.: Фан, 2008, – Б. 32-36.
10. Мабдаи нур. – Б. 314.
11. Ҳасанхўжа Муҳаммадхўжа ўғли. Дард ахлининг сultonи. Китобда: Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. – Б. 3-9.
12. Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. Тадқиқ қилувчи, эски ўзбек ёзувидан нашрга тайёрловчи, лугат ва изоҳларни тузувчи: Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Т.: Фан, 1994. – Б. 314.
13. Машраб. Девон. Тадқиқ қилувчи, қўлёзма ва босма манбалардан жамлаб нашрга тайёрловчи, лугатлар ҳамда изоҳлар муаллифи Жалолиддин Юсуфий. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б.36-40.
14. Машраб. Девон. Тадқиқ қилувчи, қўлёзма ва босма манбалардан жамлаб нашрга тайёрловчи, лугатлар ҳамда изоҳлар муаллифи Жалолиддин Юсуфий. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б.288.
15. Машраб Бобораҳим. Мабдаи нур. Тадқиқ қилувчи, эски ўзбек ёзувидан нашрга тайёрловчи, лугат ва изоҳларни тузувчи Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Т.: Фан, 1994. – Б. 314.